



**OLIV TA'LIM MUASSASALARIDA TALABALAR ORASIDA  
KIBERXAVFSIZLIK XABARDORLIGINI OSHIRISH STRATEGIYALARI:  
CYBERBULLYING VA PHISHING HOLATLARI MISOLIDA**

**Sharipov Baxtiyor**

*Buxoro, O'zbekiston,*

*tel: +99891-241-83-65, E-mail: [bakhtiyor114@gmail.com](mailto:bakhtiyor114@gmail.com)*

**Annotatsiya:** *Ushbu tezisdagi oliy ta'lim muassasalarida talabalar orasida kiberxavfsizlik xabardorligini oshirish strategiyalari, xususan cyberbullying va phishing tahdidlariga qarshi kurashish yo'llari ilmiy asosda tahlil qilinadi. Raqamli texnologiyalar tez sur'at bilan rivojlanishi natijasida yoshlar internetda faol bo'lishmoqda, bu esa ularni kiberxavflarga duchor qiladi. Tezida zamonaviy pedagogik, psixologik va texnologik yondashuvlar orqali xavfsizlikni oshirish va tahdidlarni kamaytirish bo'yicha tavsiyalar keltiriladi.*

**Kalit so'zlar:** *kiberxavfsizlik, cyberbullying, phishing, talabalar, raqamli savodxonlik, xavfsiz xatti-harakatlar*

**Abstract:** *This study examines strategies to enhance cybersecurity awareness among university students, focusing on cyberbullying and phishing threats. Rapid digital technology development increases students' exposure to online risks. The thesis proposes pedagogical, psychological, and technological approaches to improve cybersecurity and reduce cyber threats.*

**Keywords:** *cybersecurity, cyberbullying, phishing, students, digital literacy, safe online behavior*

**Аннотация:** *В данном исследовании рассматриваются стратегии повышения осведомленности студентов об кибербезопасности, с акцентом на угрозы кибербуллинга и фишинга. Быстрое развитие цифровых технологий повышает риск онлайн-угроз для студентов. В работе предлагаются педагогические, психологические и технологические подходы для повышения кибербезопасности и снижения уровня угроз.*

**Ключевые слова:** *кибербезопасность, кибербуллинг, фишинг, студенты, цифровая грамотность, безопасное онлайн-поведение*

Raqamli texnologiyalar tez sur'atlar bilan rivojlanib, talabalar hayotining ajralmas qismiga aylangan. Biroq shu bilan birga internetda faol bo'lish talabalarning cyberbullying (onlayn tahqirlash) va phishing (soxta xabarlar orqali ma'lumot o'g'irlanishi) kabi kiberxavflarga duchor bo'lish xavfini ham oshirdi. Cyberbullying yoshlarning ruhiy salomatligi va ijtimoiy faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi, phishing esa shaxsiy ma'lumotlarning yo'qolishi va moliyaviy zararlar bilan tugashi mumkin



ekanligi aniqlangan. Ushbu holatlar kiberxavfsizlik bo'yicha talabalarning bilim va ko'nikmalarini oshirishni talab qiladi. [1]

Tahlil jarayonida cyberbullying va phishingning sabablari, oqibatlar va oldini olish usullari ilmiy manbalardan olindi. Cyber tahdidlarning murakkab tabiati ko'p faktorli yondashuvni talab etadi: texnologik, pedagogik, psixologik va huquqiy choralarni birlashtirish zarur.

Ushbu tezis asosida quyidagi natijalarga erishish mo'ljallangan:

1. Cyberbullying va phishingning oliy ta'lim muhitida tarqalish tahlili – tahdidlarning sabab va xususiyatlarini ilmiy asosda tasvirlash.

2. Talabalar kiberxavfsizlik xabardorligi indeksini aniqlash – ushbu indeks yordamida dasturlar samaradorligi baholanadi.

3. Xavfsizlik mashg'ulotlari va treninglar modeli – amaliy yondashuvlar orqali talabalarda kiberxavfsizlik ko'nikmalarini mustahkamlash uchun darsliklar, treninglar, simulyatsiyalar ishlab chiqiladi.

4. Tavsiyalar to'plami – oliy ta'lim muassasalari uchun cyber tashabbuslarni tatbiq etish bo'yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar.

Cyberbullying, odatda ijtimoiy muhit, anonimlik va emotsional omillar bilan bog'liq bo'lib, ularning samarali oldini olish uchun shaxslararo ta'lim va emosional qo'llab-quvvatlash mexanizmlari zarur.

Raqamli savodxonlikni oshirish yoshlarni online muhitda xavfsiz xulq-harakatlar bilan jihozlashga yordam beradi, bu esa phishing va boshqa ijtimoiy injenerlik tahdidlarini kamaytiradi. [2]

Tezis kiberxavfsizlik sohasida talabalarning cyberbullying va phishing tahdidlariga nisbatan xabardorlik darajasini oshirish bo'yicha kompleks yondashuvni taklif etadi. [3]

Birgina texnologik choralar yetarli emas; talabalar, o'qituvchilar va ta'lim muassasalari uchun pedagogik, psixologik va amaliy treninglar uyg'unlashgan holda amalga oshirilishi kerak. Kutilayotgan natijalar ta'lim muassasalari uchun aniq, ilmiy asoslangan tavsiyalar va metodik vositalarni shakllantirish imkonini beradi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston respublikasi axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi. – Kiberxavfsizlik strategiyasi 2022-2025

2. Muzaffarxonov S., Mirzaakbarov D. “Sun'iy intellekt yordamida pochta xizmatini tashkil qilish”. – Miasto Przyszłości Kielce, 2023

3. Polvanova, D. T. (2025). Analysis of The Factors Contributing to The Prevalence of Cyberbullying Threats. *Journal of Social Sciences and Humanities Research Fundamentals*, 5(06), 30–37. Retrieved from





4. Urimbetova G. A. (2025). RAQAMLI TA'LIM MUHITLARIDA KIBERXAVFSIZLIK MASALALARI. NAZARIY VA AMALIY FANLARDAGI ... Vol. 2 No. 9, 133–135. Retrieved from

5. ENHANCING INTERNET LITERACY AMONG YOUTH: Addressing Digital Threats... INTERNATIONAL JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY, 2(07), 10–11. <https://doi.org/10.70728/tech.v2.i07.003>

6. <https://blog.avast.com/cyberbullying-vs.-trolling-heres-how-to-differentiate-between-them>